


**Poliz ekinlari zararli organizmlari va ularga qarshi kurash bo'yicha
tavsiyalar**

“OYBEK” O'KCHM inspektorlari:

Malikov Axroriddin.

Mamatqulov Ulug'bek.

Eshboyev Shohruh.



Bugungi kunda respublikamizdagi dala maydonlarida poliz ekinlaridan asosan qovun, tarvuz va qovoq yetishtiriladi. Poliz mahsulotlarining shifobaxsh xususiyati qadim zamonlardan ma'lum bo'lgan. Undan kamqonlik, bronxit, sil, nafas yo'lini va boshqa kasalliklarni davolashda foydalaniladi.

Respublikamiz sharoitida poliz ekinlaridan qovoqdoshlar (*Cucurbitaceae*) oilasiga mansub bo'lgan qovun (*Cucumis melo L*), tarvuz (*Citullus lanatus L*), qovoq (*Cucurbita pepo L*) turlari ekiladi.

Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, so'nggi yillarda agroiqlim omillari o'zgarishi poliz ekinlari navlarining saqlanishiga va urug'chilikka o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuningdek, poliz ekinlarida ko'plab

zararkunandalar - poliz qo'ng'izi, poliz shirasi, qovun pashshasi, kuzgi tunlam, chimqurtlar va boshqalar hamda kasalliklardan un shudring, fuzarioz, zang, antraknoz, perenosporioz kuchli rivojlanishi natijasida hosildorlikning keskin kamayib ketishi kuzatilmoqda.

Qolaversa, dehqonlarimiz zararkunanda va kasalliklarga qarshi turli usullarni, xususan, agrotexnik, fizik-mexanik va kimyoviy kurash tadbirlarini qo'llamoqda. Bundan tashqari, poliz ekinlarini tezroq yetiltirish uchun ko'plab o'g'itlar qo'llanilmoqda.

Olimlar tomonidan zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash hamda yetishtirish agrotexnologiyasi ishlab chiqilganligiga qaramasdan, ularni to'g'ri qo'llash bo'yicha talablarga to'liq amal qilinmayapti. Natijada tuproq va mahsulotlarga zarar yetib, tayyor mahsulotlar iste'mol qilinganda esa turli kasalliklarga chalinish holatlari kuzatilmoqda.

**Poliz ekinlari zararkunandalariga
qarshi kurash choralari**

Agrotexnik kurash. Poliz ekinlarida qovun pashshasi, shiralar, o'rgimchakkana, poliz qo'ng'izi kabi zararkunandalar keltiradigan zararni oldini olish uchun ekin maydonlarini almashlab ekish, zararlangan o'simliklarni daladan olib chiqib ko'mib tashlash, daladagi zararlangan qovun-tarvuzlarni yig'ishtirib olish, dalani chuqur shudgor qilish va qishda zarur hollarda yaxob suvi berish, hududlarga mos navlarni tanlab ekish, mineral va organik o'g'itlarni me'yoridan oshirmagan holda o'z vaqtida oziqlantirish ishlarini tashkil qilish lozim.

Biologik kurash. Poliz ekinlarda uchraydigan poliz va akatsiya shirasiga hamda o'rgimchakkanaga qarshi kurashda oltinko'z entomofagini qo'llash yaxshi samara beradi. Bunda so'ruvchi zararkunandalarga qarshi oltinko'z entomofagini zararkunandaning zichligidan kelib chiqqan holda gektariga 2-5 ming donadan 4-5 kun intervalda 3 marta qo'yish tavsiya etiladi.

Kimyoviy kurash. Qovun pashshasiga qarshi kurashda zararkunandaning bioekologik rivojlanishidan kelib chiqqan holda kimyoviy preparatlarni qo'llash lozim. Qovun pashshasiga qarshi kurashda Davlat kimyo komissiyasi tomonidan

ruxsat etilgan quyidagi preparatlar: Super Kar, 10% em.k.,0,3-0,35l/ga, Energi-duo, 24,7 % sus.k.0,2l/ga, Rimon star, 6,5% em.k.,0,3-0,7l/ga, Sipermetrin, 25%, em.k.,0,-0,3 l/ga, Difentoks,2,5%k.e. 0,25-0,5l/ga, Xuker PRO,k.e.0,5-0,7l/ga ni qo‘llash tavsiya etiladi. O‘rgimchakkanaga qarshi Nissorin,10%,n.kuk. 0,1kg/ga, Omayt 57%,k.e. 1,5l/ga, Neoran,50%k.e. 1,0l/ga kabi akaritsidlarni qo‘llash yuqori samara beradi. Bu maxsus akaritsidlar foydali entomofaglarga mutloqo bezarardir.

Poliz ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashda Davlat kimyo komissiyasi tomonidan polizda ishlatishga ruxsat etilgan preparatlardan foydalanish lozim. Bunda preparatlarni qo‘llash reglamentlariga rioya qilinishi shart. Ya’ni poliz zararkunandalariga qarshi qo‘llaniladigan barcha preparatlarni mavsumda 1 yoki 2 marta qo‘llashga ruxsat etilgan. Kimyoviy preparatlarni qo‘llash poliz hosili yig‘ib olinishiga 1 oy qolganda to‘xtatilishi kerak. Aks holda kimyoviy preparatlarning qoldiqlari mahsulot tarkibidan to‘liq parchalanib chiqib ketmasligi mumkin. Poliz ekinlariga kimyoviy preparatlar to‘g‘ri va belgilangan reglamentlarga rioya qilingan holda qo‘llanilsa, mo‘l va ekologik xavfsiz mahsulot yetishtirish mumkin bo‘ladi.